

YOSHLARNI ZARALI AXBOROTLARDAN HIMOYALASH KO'NIKMALARINI OSHIRISH

To'rayeva Ma'mura Fazliddin qizi
Navoiy vilayot Navbaxor ko'p tarmoqli texnikumda o'qituvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar o`rtasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o`ziga xos uslublari, yoshlarni zararli axborotlardan hinoyalash borasida so`z boradi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, axborot, axborot madaniyati, internet, ta'lif, buzg'unchi g'oya, yoshlar, xavfslik, UZ, ommaviy madaniyat.*

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, yolg'on axborot, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda. Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq. Keyingi paytlarda internet bilan bog'liq buzg'unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib boryapti. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda. G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini "yaqin do'st" sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yo'q, faqatgina to'da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tishmaydi. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog'orasiga o'ynayotganini bilmaydi. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so'zlarni gapirib, g'o'r yoshlarni yo'ldan urib, oxir-oqibatda razolat qurbaniga aylantirmoqda. Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada e'tiborli bo'lishni talab etadi. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilar, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamenti yanada kengaytirishni talab etadi. Albatta, taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin.

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda avvalo kelajak rejalarini qurib, unda albatta yoshlarga e'tiborni kuchaytiradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak bugungi kun jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri yoshlar masalasidir. Yoshlarga bugungi kun rivojlangan texnologiyalar asri va axborot makoni

judakeng imkoniyatlar yaratib berishi bilan birgalikda zararli axborot shaklidagi katta xavfni shakllantirmoqda. Insoniyat ertangi kuni uchun kurashar ekan bunda yosh avlodning munosib davomchi sifatida shakllanishi uchun har tomonlama chuqur islohotlar amalga oshirib borishi va bunda yoshlarning mas'ullik hissini ham shakllantirib borishi talab etiladi. Sababi yoshlar oldiga qo'yilayotgan maqsadlar ularda qat'iy rioya qilinishi talab etiladigan me'yorlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlar axborot iste'molchisi sifatida avvalo axborot tasnifini anglashi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini to'liq anglab yetishi, zararli axborot maydoni ta'siridan o'zini himoya qilish prinsiplarini anglab yetishi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanganda talab etiladigan me'yorlarni to'liq anglab yetishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar bugungi kun talabidir. Axborot asri insoniyatga tezkor axborot taqdim qilish bilan birgalikda undan noo'rin foydalanish tufayli ko'plab muammolarni shakllantirmoqda, bu o'z navbatida eng katta ta'sirini yoshlar o'rtasida namoyon etmoqda. Shu sababli yoshlar o'rtasida axborotdan to'g'ri foydalanish, ayniqsa o'smir davri yoshlarida axborotdan samarali foydalanish yoki ijtimoiy xavfli axborotlardan ularda immunitet shakllantirish talabi ortib bormoqda.

Keyingi vaqtarda "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik g'oyalari tarqatish, turfa yo'llar bilan boylik orttirishni, milliy-ma'naviy madaniyatga amal qilmaslikni, ularni o'zgartirish va ayrim hollarda yo'qotishni targ'ib qiluvchi harakatlar uyushtirilmoqda. Internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalari, odob-axloqni yemiruvchi illatlar aholini tashvishga solmoqda.

"UZ" domenidagi veb-saytlarda milliy mentalitetimizga yot bo'lgan, fuqarolarning, shu jumladan yoshlarning ongi, ruhiyati, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, axloqsizlik, behayolik, pornografiya, shafqatsizlik, zo'ravonlik, qimor hamda tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar targ'ibotiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan materiallar yoki boshqa veb-resurslarga havolalar joylashtirish (foydalanuvchilar tomonidan) kuzatilmoqda. Birgina 2021 yilning dekabr holatiga ko'ra milliy domen hududidagi 289 ta veb-saytda pornografiya, 91 ta veb-saytda esa behayolik va ma'naviy buzuqlikka targ'ib qiluvchi holatlar aniqlangan bo'lib, 2 097 ta qonun buzilishi holati qayd etilgan.

Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, internet orqali tarkatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maksad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo'lмаган, ба'zan qahramonlik vahshiylikka o'tib ketadigan bu kabi o'yinlar farzandlarimiz axloqiy-estetik tarbiyasiga to'g'ri ta'sir ko'rsata oladi, deya olmaymiz. Bir qarashda ular oddiy o'yindek ko'ringani bilan zo'ravonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy okibatlarga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko'p.

Yoshlar ongiga kuchli ta'sir etuvchi axborotlar, yot g'oyalalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g'oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilari)ni, g'arb hayat tarziga xos, o'zbek mentalitetiga zid odatlar va ko'nikmalarni targ'ib etadigan, g'arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ'ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Albatta, mamlakatimizda bu kabi salbiy omillarning oldini olish choralari ko'rilmoxda. Bu borada kuchli mexanizmga ega qonunchilik bazasi mavjud. Prezidentimizning 2021 yil 26 martda qabul qilgan «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan jamiyatda sog'lom dunyoqarash, oila, ta'lim tashkilotlari, mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish borasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Milliy manfaatlarimizga rahna solishga, ma'naviyatimizga tajovuz qilishga, tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g'arazli kuchlarga qarshi doim ogoh turishimiz kerak. Shundagina bizni hech kim, hech narsa tanlagan yo'limizdan qaytara olmaydi. Bugun farzandining istiqbolini, yorqin kelajagi porloq bo'lishini istaydigan har bir ota-onalar tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. Bola tarbiyani turli kompyuter o'yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ota-onalaridan, bobo-momolaridan, ezgulikka, poklikka va dinu diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin.

Xulosa o'rnida aytganda, insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, odob axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir, o'sib kelayotgan yosh avlodni diniy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni xar xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston: NMIU, 2016. 14-bet.
2. B.Xodjayev, M.Maxmudova. O'quvchi - yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. - T., "TAFAKKUR QANOTI", 2016. 7-bet.Islomova Z. 4-sinf o,,quvchilarining o,,qish savodxonligini baholash bo,,yicha o,,tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik ko,,rish uchun 7-mashq daftari.Toshkent. 2021.
3. A.Lutfullayev, E Jabborov. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA"SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI. ARES, Volume 2, Issue 4, 2021. 642-bet.
4. <http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot-olish-madaniyatini-shakllantirishdaiijtimoiy-meyorlarning-orni/>